



JIZZAX VILOYATI HUDUDLARIDA TURISTIK MARSHRUTLAR ISHLAB CHIQUISH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Usmanov Mashrab Rustamovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti G.f.f.d (PhD): dots E-mail:
mashrabusmonov79@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jizzax viloyati Zomin va Baxmal tumanlari hududlarida turistik marshrutlarni ishlab chiqish va rivojlantirish istiqbollari, turistik marshrutlar yaratish, turizmni rivojlantirish strategiyasi hamda sayyohlik marshrut yo'nalishlariga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *sayohat tushunchasi, sayyohlik marshrutlari, tashrif buyuruvchilar, turizm salohiyati, Jizzax viloyati sayyohlik marshrut yo'nalishlari, Zomin milliy tabiat bog'iga hududidagi turistik marshrutlar, Baxmal tumani turistik marshrutlari.*

ПЕРСПЕКТИВЫ СОЗДАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ МАРШРУТОВ В РЕГИОНАХ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: *В данной статье представлены перспективы развития и развития туристских маршрутов в районах Зоминского и Бахмальского районов Джизакской области, создание туристических маршрутов, стратегия развития туризма, направления туристических маршрутов.*

Ключевые слова: *концепция путешествия, туристические маршруты, посетители, туристический потенциал, направления туристических маршрутов Джизакской области, туристические маршруты на территории Зоминского национального природного парка, туристические маршруты Бахмальского района.*

PROSPECTS OF THE CREATION AND DEVELOPMENT OF TOURIST ROUTES IN THE REGIONS OF JIZZAK REGION

Annotation: *In this article, the prospects for the development and development of tourist routes in the regions of Zomin and Bakhmal districts of Jizzakh region, the creation of tourist routes, the strategy of tourism development, and the directions of tourist routes are presented.*

Key words: *concept of travel, tourist routes, visitors, tourism potential, tourist route directions of Jizzakh region, tourist routes in the territory of Zomin National Nature Park, tourist routes of Bakhmal district.*

Sayohat tushunchasi, odamlarning maqsadlaridan qat'iy nazar zamon va makonda ko'chib yurishni anglatadi hamda sayyohatchilarning turmush tarzi bo'lib



xizmat qiladi. Respublikamizda keyingi yillarda turistik sayyohlik marshrutlari katta etibor berilmoqda. Bugungi kunda Jizzax viloyati hududida joylashgan Zomin milliy qo'riqxonasi yirik turistik destinatsiya sifatida mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Xorijiy sayyohlarni madaniy meros ob'yektlariga, jumladan, Peshog'or qishlog' idagi Xo'jai Serob ota, Ko'k to'nli ota ziyoratgohi, Peshog'or g'ori maskanlariga chorlash va sayyohlarning ushbu hududda qolishi uchun yetarlicha joylashtirish vositalari tashkil etilmagan. Sayyohning cheklangan vaqti bor, u bir kundan kamroq vaqtdan keyin boshqa bir ob'yektga tashrif buyuradi.

Viloyatdagi barcha ziyoratgohlar imkoniyatlarini to'liq ishga solib, 2023-yilda 20 ming nafar ziyoratchini jalb qilish bo'yicha dasturi ishlab chiqildi. Joriy yilda viloyatimizga 140 ming nafar xorijiy turistlarni jalb qilish orqali 31mln dollar turizm xizmatlar eksportini amalga oshirish vazifasi qo'yilgan. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga tashrif buyurgan sayyohlar soni 667 ming nafardan oshgan. Bunda, mahalliy sayyohlar soni - 607 ming, yillik reja 806 ming (yillik rejaga nisbatan 75%)ga xorijiy sayyohlar soni - 60 ming 365 nafar, yillik reja 140 ming nafar (yillik rejaga nisbatan 43.1%), sayyohlar tashrifi kuzatilib, eksport ulushi 12.958 mln, yillik reja 31 mln (yillik rejaga nisbatan 42%)ga yetkazildi.

Bundan tashqari, sayyohlar oqimini ko'paytirish va turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha viloyatning Sh.Rashidov, Zomin, Yangiobod va G'allaorol tumanlaridagi 11 ta mahallalarni turizmga ixtisoslashtirish yuzasidan reja ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, marshrut guruhi potensial munosabatlarga asoslangan holda aniqlangan har bir turizm ob'ektining mezonlari va ular orasidagi mavjudlik hisobga olinishi lozim. Marshrutni amalga oshirish uchun, jamoat transporti va uni qo'llab-quvvatlash vositalarini yaxshilashga jiddiy ehtiyoj mavjud.

So'nggi paytlarda turistik diqqatga sazovor joy sifatida sayyohlik marshrutlarining rivojlanishi katta ahamiyat kasb berilmoqda. Viloyatda mavjud turistik ob'ektlari eltuvchi yo'llar qayta tiklanmoqda, biroq ularga kirish imkoniyati pastligi sababli sayyohlar yetib borishlari qiyin hududlar ham mavjud. Marshrutlar va yo'l sharoitlari, yo'l bo'yi xizmat ko'rsatish sohasi deyarli yaxshi holatda deb bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, nosoz yo'l va ob'ektlarning mavjudligi turistlar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'plab madaniy va meros ob'ektlarida avtobus bekatlari mavjud emas hamda jamoat transportidan foydalanish imkoniyati past darajada, shuning uchun odamlar shaxsiy transportni afzal ko'radilar. Bundan tashqari, Zomin tumaninig shimoldan janubga tarqalib ketgan madaniy meros ob'ektlari uchun qulay turistik faoliyatni hisobga olgan holda, yangi turistik xizmatlar dasturini ishlab chiqish lozim.

Turistik marshrut deyilganda turist biror yo'nalishga yoki makonga boradigan hamda o'sha yo'nalishdan qaytadigan yo'l tushuniladi. Marshrut so'zi yo'nalgan, belgilangan, aniqlangan yo'l haqida ma'lumot beradi. Marshrut atamasi faqat turizm sohasiga tegishli bo'lmay balki, kishilarning turizm bilan bog'liq bo'lmagan doimiy ravishda ma'lum tomonga, aniqroq aytadigan bo'lsak, o'ziga ma'lum geografik manzil,



makonga harakat qilishini ham tushunish mumkin. Kishilar marshrutning uzoq-yaqinligiga qarab harakatlanish vositalarini tanlaydilar. Masalan, Jizzaxdan Sirdaryo yoki Samarqandga boruvchi kishilar albatta yengil avtomobil, avtobus, temir yo'l transporti yoki transportning boshqa turlarini tanlaydilar.

Avvalombor, viloyatga tashrif buyuradigan sayyohlar zamonaviy transport vositalari orqali qisqa muddatda yetib kelgan kishilar shahar atrofidagi tog'larga chiqmoqchi bo'lsalar o'sha qadimdagi asosiy transport vositalari bo'lgan eshak, otulovlardan foydalanishga majbur bo'lishadi. Chunki bu transport vositalarining ham o'z yo'nalishi, yo'li va marshrutlari mavjud. Marshrutlar - kishilarning texnika yordamida, hayvonlar yordamida yoki piyoda biror yo'nalishga harakatlanadigan yo'l hisoblanadi. Turist ma'lum bir turistik hududga tashrifi davomida, avvalo, birinchi navbatida doimiy turish joyiga, ya'ni joylashtirish vositalariga murojaat qiladi. Shundan so'ng ma'lum bir marshrut asosida turistik destinatsiyalarga tashrifi amalga oshiriladi.

Turistik marshrutlar yo'nalishiga ko'ra to'g'ri chiziqli, aylana (xalqali) radial va kombinatsiyalashgan tipiga bo'linadi.

Jizzax viloyati bo'yicha sayyohlik marshrut yo'nalishlari ishlab chiqish, shuningdek, viloyatining turistik destinatsiya ob'ektlar bilan bog'lovchi yangi marshrutlar kartasini ishlab chiqishni taqazo etadi. Jizzax viloyati bo'yicha quyidagi sayyohlik marshrut yo'nalishlari ishlab chiqildi.

- Jizzax sh. – Sharof Rashidov – Zomin – Yangiobod – Jizzax sh.; - Jizzax sh. – Sharof Rashidov – G'allaorol – Baxmal – Jizzax sh.; - Jizzax sh. – Sharof Rashidov – Forish – Aydar – Arnasoy ko' llar tizimi – Jizzax sh.; - Jizzax sh. – Sharof Rashidov – Paxtakor – Do' stlik – Arnasoy –Mirzacho' l – Jizzax sh.

Zomin milliy tabiat bog'iga hududiga quyidagi turistik marshrutlar ishlab chiqildi. Zomin milliy tabiat bog'ida tabiatni asrash va muhofaza qilish bilan bir qatorda, xalqaro tog' turizmini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Zominsuv havzasi va milliy bog' hududlarida ko'p yillik olib borilgan turistik tadqiqotlar natijasida, quyidagi marshrut yo'nalishlari ishlab chiqildi:

1. O'rikli soydan boshlanib, Shovqartog'ning Mirzoulen dovonigacha otda va piyoda sayyohat qilinadigan marshrut yo'nalishi. Ushbu marshrut yo'nalishida turistlar tog' daralari bo'ylab otda, qalin archazorlar oralig'i va tog'ning tepa qismlarida piyoda harakatlanishi tavsiya qilinadi. Bu yo'nalish bo'ylab harakatlanganda tog' daralarini, archalarning 3 xil turini, turli xil dorivor o'simliklarni hamda ayiq, yovvoyi cho'chqa, quyon va turli qushlarga zarar yetkazmagan holda tomosha qilish mumkin;

2. Zominsuv havzasining o'rta qismidan o'tgan Zomin – Baxmal tumanlarini bog'laydigan avtoyo'l orqali avtomobil, motosikl, velosiped va piyoda sayyohat qilinadigan marshrut yo'nalishi. Bu marshrut yo'nalishida turistlar dengiz sathidan 1000 m dan 2710 m balandlik mintaqalarini o'zgarishini tomosha qilish imkoniyatiga ega. Sayyohat davomida Archamozor, Ayiqli soy, Yong'oqsoy va Olmasoy soyliklarini boshlanish qismlarini va 700 yoshli Boboyong'oqni hamda yo'nalishning eng baland



nuqtasi G'o'ralash dovoniga (2710) chiqib borilganda, tabiati bilan ajralib turadigan Chortangi darasini binokl yordamida tomosha qilish mumkin. Jumladan, bu yerda tik qoyalar, qushlardan qora laylak, boltayutar hamda boshqa turdagi yirqich qushlar ko'plab uchraydi;

3. O'rikli soydan boshlanib, Taqali cho'qqigacha otda va piyoda sayyohat qilinadigan marshrut yo'nalishi. Bu yo'nalishda sayyohlar O'rikli soyning quyi oqimidan yuqori oqimi tomon vodiylar bo'ylab balandlik mintaqalanishga ko'ra harakatlanadi va tabiatdagi o'zgarishlarni, ya'ni turli xil dorivor o'simliklar, archaning 3 ta turini, qushlarning bir necha turlarini kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, Taqali cho'qqi yonbag'rida tikilgan chodirlarda bir sutka dam olishni tashkil qilish mumkin;

4. Usmonli soy qishlog'idan Angren soy va undan keyin Ayriliq soygacha olib boriladigan marshrut yo'nalishi. Bu marshrut yo'nalishida otlar yordamida va piyoda harakatlanishi mumkin. Marshrut davomida asosan hayvonlardan yovvoyi cho'chqa, ayiq, bo'ri, tulki va tog' takalari ko'p uchraydi. Shu sababli ham xavfsizlik nuqtai-nazaridan guruh bo'lib harakatlanish tavsiya qilinadi;

5. O'rikli soydan boshlanib Irg'ayli soygacha otda va piyoda sayyohat qilinadigan marshrut yo'nalishi. Bu marshrutda asosan tabiat manzarasi bilan birgalikda baland qoyalar, turli manzaralar va ayiq, silovsin, turli qushlarni uchratish mumkin. Sayyohat davomida ko'plab yirtqich hayvonlar uchrashi sababli ham xavfsizlik nuqtai-nazaridan guruh bo'lib harakatlanish tavsiya qilinadi;

6. Yettikechuv qishlog'idan boshlanib Mix soygacha otda va piyoda sayyohat qilinadigan marshrut yo'nalishi. Bu marshrutda asosan Archamozor ziyoratgohi, buloq, g'or 300 yoshli shum tol va bir necha asrlardan beri saqlanib kelinayotgan qadimiy Xitoy qo'rg'onlari (Miq qalasi)ni tomosha qilishi mumkin. Hayvonlardan jayra, tulki, bo'ri va yovvoyi cho'chqalar ko'plab uchraydi hamda turli xil g'orlarning xususiyati bilan tanishiladi.

Shu bilan birga Baxmal tumani hududiga quyidagi turistik marshrutlar ishlab chiqildi va ularga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

1. G'allaorol tumanidan boshladi Sa'd Ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi - Baxmal tumanidagi "Malik Ajdar" ziyoratgohi - Dong'ora dam olish maskani - "Paloxmon ota" ziyoratgohi - Tagob qishlogidagi "Terakli ota" ziyoratgohi - Tangatopdi ota ziyoratgohi - Tumirqadam qishlog'idagi "Xo'ja Ko'ndalang ota" ziyoratgohi - Oqqo'rg'on qishlog'idagi "Muxammad Said Xo'ja Abu Said Mo' min Holiq Xo'ja" ziyoratgohi.

2. Baxmal tumani markazidan boshlanadi - Baxmal tumani markazida "O'smat ota" ziyoratgohi - "Novqa ota" ziyoratgohi - "Novqa ota tepa" yodgorliklari - "Bog'i Mozor ota" ziyoratgohi - Jum-jum qishlog'idagi "Sa'dulla Izbosarov" dam olish maskani - "Nushkent tepa" yodgorliklari.

3. Baxmal tumanidan boshlanadi - Xo'ja Ko'ndalang ota ziyoratgohi - "Baxmal oromgohi"- sanatoriyasi - "Boyqo'ng'ir o'tovlari" dam olish maskani.

4. Baxmal tumanidan boshlanadi - Qatortol qishlog'ida "Do'lana" dam olish maskani va betakror tog' manzaralari hamda ekoturistik mintaqalari.



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Jizzax viloyati o'zining boy tarixi, tabiiy va madaniy me'ros ob'ektlari bilan alohida ajralib turadi. Hududda turizmni rivojlantirish uchun avvalo turistik destinatsiyalarga eltuvchi turistik marshrutlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Viloyat bo'yicha sayyohlik marshrut yo'nalishlarini ishlab chiqish va yangilarini aniqlash, Zomin va Baxmal turistik marshrutlarini rivojlantirish orqali viloyatga turistik oqimning yanada oshishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳайитбоев Р., Тўхлиев И. Туристик маршрутларни ишлаб чиқиш. -С.: Ўқув қўлланма, 2016. -66 б.
2. Комилова Н.К., Усманов М.Р. Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишнинг ҳудудий жихатлари. Монография – Жиззах. ЖДПУ “Таҳририй-нашриёт бўлими нашри”, 2023. – 87-бет.
3. Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi ma'lumotlari. Jizzax. 2023.
4. Komilova, N. K., Matchanova, A. E., Safarova, N. I., Usmanov, M. R., & Makhmudov, M. M. (2021). Some socio-economic aspects of gastronomic tourism study. Estudios de economía aplicada, 39(6), 12.
5. Usmanov, M. (2020). Туризм–иқтисодий ва ижтимоий географиянинг тадқиқод объекти сифатида. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-5.
6. Usmanov, M. (2020). HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC CHARACTERISTICS AND SOCIO-SPIRITUAL FACTORS OF VISITING TOURISM IN UZBEKISTAN. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-4.
7. Usmanova S.S. Jizzax viloyati madaniy va meros turizmi marshrutini yaratish turizmni rivojlantirish strategiyasi. "Экономика и социум" №2(117) 2024 www.iupr.ru